

Date: 17th January-2025

GLOBALASHUV DAVRIDA AGRESSIV O'SMIRLAR JAMIYATGA MOSLASHISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Qurboniyozova Go'zal Anvarbek qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv davrida agressiv o'smirlar jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlari haqida fikrlar ilgari surilgan. Agressiv o'smirlarning turlariga to'xtalib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni haqida to'xtalangan. Ularni jamiyatga ko'nikishlarining umumiy va farqli xususiyatlari ochib berilgan. Psixologik nuqtayi nazardan tahlilga tortilib, turlicha izohlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-psixologik muhit, agressiya, o'smir psixologiyasi, determinant, JSST, globallashuv jarayonlari

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida shaxsning o'smirlik davrida jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash, pozitiv fikrlashni va xulq-atvorini jamiyat normalariga mos ravishda tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining 2022-yil yakunlari bo'yicha taqdim etilgan bayonotida "...dunyo bo'yicha har yili 11-16 yoshdagi agressiv o'smirlar orasida 200 mingga yaqin qotillik va talonchilik jinoyati sodir etiladi..." dalili ta'kidlangan. Bu borada Butunjahon Sog'liqni Saqlash Assambleyasining "...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo'lmaydi"¹ tamoyiliga asoslangan harakatlar strategiyasida hamda YUNESKOning 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasidagi "barcha o'smirlarni ruhiy jihatdan barqaror rivojlanishni rag'batlantirish; inson huquqlari, tinchlik va zo'ravonliksiz ijtimoiy hayotni targ'ib qilishni ta'lim orqali erishishni ta'minlash"² aktual masala sifatida qayd etilib, mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini yanada dolzarblashtiradi.

Agressivlik – bu boshqalarga yoki o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar va xatti-harakatlarda ifodalangan shaxsiy xususiyatdir. Dushmanlik, jismoniy shikastlanish, haqorat qilish bilan namoyon bo'ladi. Agressiv odamlar asabiy, ta'sirchanlikni kechiradilar. Tashxis klinik usullar bilan, shaxsning psixodiagnostik anketalari, proektiv testlar yordamida amalga oshiriladi. Agressivlikni kamaytirish uchun psixoanaliz, kognitiv-xulq-atvorli psixoterapiya, avtotrening va dori-darmonlar bilan tuzatish qo'llaniladi. Amaliy nuqtayi nazardan, tajovuzkorlik insonning tug'ma emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida orttirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarga tayyorgarligining kuchayishi sifatida qaraladi. Sifat xususiyatlariga ko'ra, tajovuzkorlik konstruktiv va buzg'unchi o'rtasida farqlanadi. Birinchisi, mudofaa harakatlarida, qasddan zarar

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.

² "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.



Date: 17th January-2025

yetkazishda amalga oshiriladi, ijtimoiy moslashishga, to'siqlarni yengib o'tishga va yetakchilikka imkon beradi. Ikkinchisi, boshqasiga jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlar keltirish niyatiga asoslangan konstruktiv bo'lmagan tajovuzkor harakatlar bilan ifodalanadi. Yo'nalish nuqtayi nazaridan, tajovuzkorlik boshqalarga va o'ziga qaratilgan. Shunga ko'ra, getero-agressiv – haqorat, kaltaklash, so'kinish va o'z-o'ziga zarar yetkazish yoki avto-agressiv reaksiyalar ajralib turadi. Avto-agressiyaning ekstremal versiyasi o'z joniga qasd qilishga urinishdir. Eng aniq dushmanlik harakati boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir. Boshqa mumkin bo'lgan variantlar – dushmanlik, yovuzlik, negativizm, qo'zg'alish, xafagarchilik, shubha, tahdid. O'z-o'zini boshqaradigan tajovuz aybdorlik va o'zini kamsitish hissi bilan birga keladi. Agressivlik sabablari Agressivlikning shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etadi. Dushmanlik xulq-atvori oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida asta-sekin shakllanadi. Bolalar tajovuzkorlikni kuzatish va sinab ko'rish orqali o'rganadilar: ular nafrat va dushmanlik qanday namoyon bo'lishini ko'radilar, bu nimaga olib kelishini baholaydilar, olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar. Agar tajovuzkor harakatlar tajribasi ijobiy bo'lsa, ular xarakterda mustahkamlanadi. Voyaga yetgan odamning tajovuzkorligining sabablari ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy kasalliklar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan zaharlanish holatlari hisoblanadi.

O'smirlik davri xavfli xatti-harakatlar bilan ajralib turadi. Buni ko'rsatadigan belgilardan biri bu muayyan yosh davridagi kasalliklarga bog'liq

bo'lmagan sabablarga ko'ra yuqori o'limdir. Xavfli xulq-atvor tajovuz bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, depressiv va salbiy hissiy holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar tajovuzni qabul qilingan me'yor va qoidalarga, umuman jamiyatda shaxsning mavjudligiga zid bo'lgan maqsadli buzg'unchi xulq-atvor deb tushunsak, o'smirlarning tajovuzkor xulq-atvorining sabablaridan birini tajovuzning frustratsiya nazariyasi bilan izohlash mumkin.

Ushbu nazariyaga ko'ra, o'smir o'zining jismoniy va psixologik ehtiyojlaridan doimiy norozilik bilan bog'liq umidsizlikni boshdan kechirayotgan paytda, bu tajribalar agressiv xatti-harakatlarga yordam beradi. Shuningdek, tajovuzkor xatti-harakatlarning og'irligi va shakliga biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. O'smirlarning tajovuzkor xatti-harakati tajovuzkor e'tiqod va qarashlar, o'smir o'sayotgan muhitda yuqori darajadagi dushmanlik, o'smirlik davriga xos impulsivlik, hissiy va ijtimoiy o'zini o'zi boshqarishning shakllanmagan qobiliyati bilan qo'zg'atilishi mumkin.

Globalashuv davrida agressiv o'smirlar jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagicha fikrlar ishlab chiqildi:³

1. O'smirlarda uchraydigan agressiv holatlarni o'rganish muammosini tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy-nazariy manbalarning o'rganilishi ularda uchraydigan ijtimoiy-

³ Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: "Bookmany print" nashriyoti, 2021 y. – 162 b.



Date: 17th January-2025

psixologik muammolarning jamiyatga moslashish jarayonini batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa o'smirlardagi hissiy emotsional holatlar dinamikasini o'rganishni taqozo etishdan dalolat beradi.

2. O'smirlarga xos agressiv holatlarni shakllanishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog'liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarga bog'liqligi dalillandi.

3. Oilada ota-onalik rolining muvaffaqiyatli va barqaror bo'lishini ta'minlashda o'zini o'zi to'g'ri baholash, ota-ona va o'smir o'rtasida yuzaga keladigan hissiy-emotsional holatlarni adekvat idrok etish muhim omil ekanligi aniqlandi.

4. O'smir yoshidagi shaxslarning emotsional holatlarini tadqiq etish natijasida nafaqat ularning ta'lim-tarbiyasi, balki oiladagi shaxslararo munosabatlar jarayonlarini samarali va barqaror psixologik muhitni yaratish muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi aniqlandi.

5. O'smirlarda agressiv holatlarda darajasining o'zgaruvchanligi, agressiv vaziyatlarda turli salbiy emotsional holatlarni keltirib chiqarishi kabilarni tadqiq qilishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish uchun turli stressli vaziyatlarda o'smirlarni o'rganish usullarini mohiyati izohlandi.

6. O'smirlarda agressivlik holati namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini ta'minlovchi sifatlar: emotsional holatlarda o'zini nazorat qila olish, optimistik 32 kayfiyat, muloqotmandlik, empatiya, kirishimlilik va nazoratning kuchlilikigi kabi psixologik omillar tajovuzkorlikning oldini olishda asosiy faktorlarni tashkil etganligi aniqlandi.

7. Agressivlik hissining shakllanishida asabiylashganlik, tajovuzkorlik, jizzakilik, tortinchoqlik, xavotirlanish, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkorlik, ruhiy siqilish, autoagressiya, egressiya va ta'sirchanlik-o'zgaruvchanlik kabi psixologik xususiyatlar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

8. O'smirlarda bilvosita tajovuz, tajanglik, shubhalanuvchanlik omillarini kamaytirish orqali ularning jamiyat haqidagi ijobiy fikrlar, shaxslararo nizoli vaziyatlarni adekvat echim topish, o'quvchilar jamoasida o'zaro do'stona muhitning qaror topishi, tartib-intizomning ijobiy tarafga o'zgartirish mumkinligi isbotlandi.

9. O'smirlarning yoshi ulg'aygani sari ularning maktab hayoti bilan bog'liq bezovtalik darajasi nisbatan kamayishi va belgilangan me'yordan yuqori ko'rsatkichlarga nisbatan oshib borishi aniqlangan bo'lsa, o'smirlar davrining so'nggi davrlariga kelib, o'quv faoliyatida ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar natijasida maktab hayotiga moslashish jarayonlari sodir bo'lishi dalilandi.

10. O'smirlarning shaxslararo munosabatlarida "yuqori" darajadagi bezovtalikning namoyon bo'lishi, ularning o'ziga taalluqli bo'lgan guruh a'zolarining ta'siri, shuningdek, inqiroz davriga xos bo'lgan davrni boshdan kechirayotganligi ta'siri natijasida paydo bo'lishi anqilandi.

Psixotrening dasturida o'smirlardagi salbiy hissiy holatlar psixokorreksiyasiga qaratilgan mashqlar orqali o'smirlar o'zlarini turli psixologik vaziyatlarda sinab 30



Date: 17th January-2025

koʻrdilar va uning natijalarini tahlil qildilar.⁴ Psixotrening dasturidagi psixologik bilimlarni egallash va salbiy psixologik holatlardan xalos boʻlish, har xil ekstremal vaziyatlarda psixologik jihatdan toʻgʻri qarorlar qabul qilish, bahsmunozarali holatlarni adekvat baholash oʻquvi, tajriba va malakalarini, oʻzining imkoniyatlarini toʻgʻri baholash, nizoli vaziyatlarga uddaburonlik koʻnikmasini shakllantirish, assertiv xulqni rivojlantirish, emotsional bilimdonlikni oʻzlashtirish, emotsiyalar bilan ularning namoyon boʻlishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni his etishni kuchaytirish, oʻzining emotsional holatini aniq ifodalash koʻnikmasini oʻzlashtirish, intuitsiyani, sanogen tafakkurni va ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatini rivojlantirish mashqlarining samaradorligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.
2. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь, 119 сон, 2-бет.
3. Abdullayeva B.S. Boʻlajak oʻqituvchilar oʻquv-ilmiiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: “Bookmany print” nashriyoti, 2021 y. – 162 b.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.



⁴ Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.